



ZAMONAVIY DIZAYNING MILLIYLIK BILAN UYG'UNLASHUVI

Boltayeva Iqbol Baxrom qizi
Ergashev Azizbek Sherzod o'g'li

Termiz davlat unuversiteti

Azizbekergashov61@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20711781>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 12-iyun 2026 yil

Ma'qullandi: 14-iyun 2026 yil

Nashr qilindi: 16-iyun 2026 yil

KEYWORDS

Milliylik, mato, kurtka, asos, dizayn, moda uyg'unligi, tekstura, ekologik ong, istiqbolli moda pozitsiyasi.

ABSTRACT

Ushbu mavzu doirasida zamonaviy modaning estetik tamoyillariga asoslangan, milliylik va nafislik uyg'unligidagi « Milliy mato elementlaridan foydalanib ayollar libosi dizayn loyihasini ishlab chiqarish » mavzusida « Ko'hna atlas mo'jizasi » nomli liboslar to'plami ishlab chiqildi. Kolleksiya ijodiy manbai sifatida "ko'pikdagi shafaq nurlari" obrazidan ilhom olindi. Bu manbaa orqali liboslarda yengillik, nozik yorug'lik va ranglar o'zaro o'yinini ifodalovchi uslub shakllantirildi. Kolleksiyaning yaratgan dizayner quyidagi asosiy bosqichlar amalga oshirildi: Kolleksiya konsepsiyasi ishlab chiqilib, zamonaviy va amaliy kiyim namunalari yaratildiganligi haqida qisqacha yoritildi. Bugungi zamonaviy bichim va milliy atlas matosining takrorlanmas birikishi natijasida yaratilgan liboslarimiz betakrorligiga yanada ishonch hosil qilishimiz mumkin.

Hozirgi kunda jahon moda industriyasida ustki kiyimlar, ayniqsa kurtkalar, nafaqat iqlimga mos funktsional mahsulot sifatida, balki shaxsiylik, milliylik, ekologik ong va moda falsafasini ifodalovchi vosita sifatida ham rivojlanmoqda. 2020-yillardan beri dunyoda oversize, asimetriya, milliy naqshlar, transformatsiyalanuvchi shakllar, sifatli tekstura, va matolarning eksperimental ishlanmasi asosiy tendensiyaga aylangan.

Dunyoga mashhur dizaynerlar tajribasida kurtkalar dizayni. Moncler (Italiya – Frantsiya). Moncler – funktsional, sport uslubidagi qishki kurtkalar dizaynida dunyodagi eng yetakchi brendlardan biri.

Ularning kolleksiyalarida quyidagilar ustuvor: Yuqori texnologik materiallar, Issiqlikni tutuvchi qatlamlar, Zamonaviy siluetlar bilan klassik shakllarning uyg'unligi.

Moncler brendining 2019-yildan beri ishlab chiqayotgan "Genius Project" loyihasi esa har yili turli dizaynerlar bilan hamkorlikda etno, urban, minimalist yo'nalishlarni birlashtirgan kolleksiyalar taqdim etmoqda.

Loyihalananayotgan ustki kiyim ham – atlas matosini issiq qatlamlar bilan kombinatsiyalash, obrazli yoqalar, amaliylik bilan nafislikni birlashtirish orqali Moncler'ning yondashuviga mos mahalliy, milliy dizayn echimlari bor.

Dries Van Noten (Belgiya) Dries Van Noten – tekstura, rang va naqshlar ustasi sifatida tanilgan dizayner. Uning ko'plab

kolleksiyalarida Osiyo va Yaqin Sharq madaniyatidan ilhomlangan milliy naqshlar va bezaklarning abstrakt, modern talqini qo'llaniladi.

Ushbu madellar ham atlas matosining betakror naqshlari, munchoqli ishlovlar, yeng va yoqadagi bezaklar orqali estetik qatlamli liboslar yaratadi. Bu jihatlar Van Noten ishlariga estetik jihatdan yaqin turadi, ammo mahalliy madaniyatga tayangan holda yangi vizual til yaratadi.

Istiqbolli moda pozitsiyasi; Loyihalananayotgan libosimiz dunyodagi ilg'or moda yondashuvlariga mazmunan mos. Milliy material va ruhiyatga sodiq. Amaliylik va estetikani uyg'unlashtirilgan. Modulyar, funksional va vizual obrazlarga boy va eng asosiysi milliy madaniyatni zamonaviy modaga aylantira olgan. Bu kolleksiya – nafaqat o'zbek ayollarining ehtiyojlariga javob beruvchi qishki kiyimlar to'plami, balki O'zbekiston modasini xalqaro tendensiyalarga bog'lovchi etno-dizayn ko'prigidir.



1-rasm. Zamonaviy kurtka bichimlari

Chet el dizaynerlari yaratgan kurtkalar bichimidan bugungi kunda milliylik ruhi bilan uyg'unlashtirgan holda fakultetimiz talaba dizayner qizlari o'z kolleksiyalarini yaratib moda sahnasida namoyish etib kelmoqda. Takrorlanmas nafis liboslar dizayni va uning yaratilish tarixi kishini o'ziga jalb etmasdan qolmaydi.

Ushbu to'plamni yaratishda shafaq nurlari ijodiy manba sifatida tanlangan.



2-rasm. ijodiy manba; ko'pikdagi shafaq nurlari.

Badiiy loyihalash o'ziga ijodiy manbaani tanlashdan tayyor mahsulotgacha bo'lgan jarayonni qamrab oladi. Liboslarni dizaynini yaratishda kompozision yechim va koloristik qatorning ahamiyati kattadir.

Kompozisiya – deganda biz ma'lum bir ifodaga ega tuzilmasini yaxlitlikda, maqsadli qurish, qaysiki, qismlari joylashuvi va o'zaro mutanosiblikda, bog'liqlikda bo'lishini va umumlashtirilgan, fikr va mazmunga egaligini tushunamiz. Liboslar kompozitsion yechimini ishlab chiqqanda mantiqiy va to'g'ri did bilan joylashuvini hamda formaga yaqqollik, nafislik baxsh etishi naqshlarning o'ziga xos joylashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Kompozitsion yahlitlikni ishlab chiqqanimizda libosning va naqshlarning bir biriga mutanosibliigi, ranglar, siuetlar tuzilish va go'zallik mantiqi, qismlarning yaxlitlik, mutanosiblikdagi uyg'unligi, yuqorida qayd qilinganidek, nafaqat insonning yaratuvchanligiga bog'liq. Kompozisiya alomatlarini biz tabiat formalarida, o'simliklarning tuzilishlarida, mavjudotlar organizmlarida, koinotning tuzilishida va hokazolarda ham ko'rishimiz mumki

Bu kolleksiyamda iloji borucha ranglarni to'g'ri tanlashga harakat qildim va izlanishlar olib bordim. Sababi rang buyumning eng muhim informatsion sifatlaridan biri hisoblanadi. Loyihalanayotgan liboslar to'plamida ranglar alohida tabiiy ranglardan tayyorlangan. Har birini tayyorlashda alohida e'tibor va mahorat bilan uzoq vaqt davomida tayyorlanadi. Munchoqlardan ustki taqinchoq yasash alohida iste'dod vaqt talab etadi va uning tagidagi asosiy libosida qora rang muhim hisoblanadi. Bu jarayon juda uzoq vaqt va mehnat talab qiladi.



3-rasm. Zamonaviy va milliklik mavzusida «Ko`hna atlas mo`jizasi» kolleksiyasi

Matolar va boshqa dekorativ elementlarning ekologik jihatlari - Matolarni tanlash: Organik va ekologik toza matolarni tanlash, masalan, organik paxta, bambuk tolasi yoki qayta ishlangan matolar.

Xulosa: Ishlab chiqarish jarayonining ekologik jihatlari Munchoqlar to'qish texnikasining ekologik ta'siri - Qo'lda to'qish: Munchoqlarni qo'lda to'qish texnikasi elektr energiyasi va boshqa resurslarni kamroq talab qiladi, bu esa ekologik jihatdan foydali.

Iste'molchilarga liboslar to'plamining ekologik jihatlari va barqarorlik tamoyillari haqida ma'lumot berish. - Barqaror moda va ekologik ma'lumotlar: Iste'molchilarga ekologik toza

materiallar va ishlab chiqarish jarayonlari haqida ma'lumot berish orqali ularni ekologik jihatdan mas'uliyatli xarid qilishga undash..

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, «O'zbekiston», 2017 yil, 488 bet.
- 2.Xasanboeva G.K. Kostyum dizayni. Toshkent: TTESI, 2013
- 3.L.A. Safina, L.M. Tuxbatulina, V.V. Xammatova. Kostyum loyihalash. Rostov-na-Donu: Feniks, 2007. – 283 bet.
- 4.Fashion Revolution (2023). Fashion Transparency Index. (Barqaror moda va ekologik masalalar bo'yicha hisobot.)
- 5.Entwistle, J. (2000). The Fashioned Body: Fashion, Dress and Modern Social Theory. Polity Press. (Moda va ijtimoiy nazariyalar.)
- 6.Abidin, C. (2016). "Visibility Labour: Engaging with Influencers' Fashion on Instagram." Media International Australia, 161(1), 86-100. (Ijtimoiy tarmoqlardagi influencerlarning modaga ta'siri.)
- 7.Wilson, E. (2003). Adorned in Dreams: Fashion and Modernity. I.B. Tauris. (Moda va zamonaviylik.)

